O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 316.7:004.738.5

Ulug‘bek DADABOYEV,
Mustaqil tadqiqotchi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail:u.dadaboev@mail.ru, https://orcid.org/0000-0001-8917-803X

PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

MILLIY O‘ZLIK VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida tobora kengayib borayotgan axborotlashgan jamiyat kontekstida milliy o‘zlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Sharq mumtoz falsafiy merosi va zamonaviy G‘arb tarmoq hamda axborot jamiyati nazariyalariga tayanib, milliy o‘zlik lisoniy, tarixiy-xotiraviy, aksiologik va ma’naviy-diniy komponentlarni qamrab oluvchi ko‘p qatlamli fenomen sifatida konseptuallashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘zlik, axborotlashgan jamiyat, tarmoq jamiyati, kognitiv suverenitet, ma’naviy agentlik, tarixiy xotira, qadriyatlar tizimi, globallashuv, madaniy suverenitet, metodologik asoslar.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF NATIONAL IDENTITY IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of national identity within the conditions of a globally expanding information society. Drawing on classical Eastern philosophical heritage and contemporary Western theories of the network and information society, the study conceptualizes national identity as a multi-layered phenomenon comprising linguistic, historical-memorial, axiological, and spiritual-religious components.

Keywords: National identity, information society, network society, cognitive sovereignty, spiritual agency, historical memory, value system, globalization, cultural sovereignty, methodological foundations.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье исследуются теоретико-методологические основы понятия национальной идентичности в контексте информационного общества, масштабы которого непрерывно расширяются в условиях глобализации. Опираясь на классическое философское наследие Востока, а также современные западные теории сетевого и информационного общества, автор концептуализирует национальную идентичность как многослойный феномен, включающий языковой, историко-мемориальный, аксиологический и духовно-религиозный компоненты.

Ключевые слова: национальная идентичность, информационное общество, сетевое общество, когнитивный суверенитет, духовная субъектность, историческая память, система ценностей, глобализация, культурный суверенитет, методологические основы.

Kirish. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida milliy o‘zlik muammosi yangi nazariy-metodologik mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy axborot makonining chegarasiz tabiati, madaniy oqimlarning eksponensial tezlikda almashinuvi va milliy chegaralarning virtual makonda shartli tus olishi millat sifatidagi o‘zlikni anglash mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda [1]. Ushbu jarayon fonida milliy o‘zlik endi faqat etnik kelib chiqish yoki hududiy mansublik bilan belgilanadigan statik kategoriya sifatida emas, balki doimiy ravishda qayta shakllanuvchi, muzokaraga ochiq va axborot ta’siriga ta’sirchan dinamik jarayon sifatida talqin etilmoqda [2]. Shu bois, milliy o‘zlikning nazariy-metodologik asoslarini axborotlashgan jamiyat sharoitida qayta konseptuallashtirish dolzarb ilmiy-falsafiy vazifaga aylanmoqda.

Mavzuning ilmiy dolzarbligi ikki jihat bilan izohlanadi: birinchidan, milliy o‘zlik masalasi an’anaviy ravishda etnografiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning axborot texnologiyalari bilan o‘zaro ta’siri metodologik jihatdan yetarlicha tizimlashtirilmagan; ikkinchidan, mustaqil davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun milliy o‘zlikni mustahkamlash strategik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot vazifasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy o‘zlik tushunchasining falsafiy ildizlari Sharq mumtoz tafakkurida chuqur asoslangan. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil shahar aholisining fikrlari” asarida jamiyat a’zolarining birlashtiruvchi umumiy g‘oya va qadriyatlar atrofida uyushishini fazilatli jamiyat mavjudligining zaruriy sharti sifatida ko‘rsatgan edi [4]. Uning ta’limotida jamoaviy o‘zlikning shakllanishi individual fazilat bilan ijtimoiy maqsad birligi orqali yuzaga keladi. Bu borada Abu Rayhon Beruniy o‘zining izlanishlarida har bir xalqning o‘ziga xos til, urf-odat va bilim tizimiga ega ekanligini e‘tirof etib, madaniy xilma-xillikni ilmiy tadqiqotning muhim predmeti sifatida belgilagan [5]. Uning “Hindiston” asarida qo‘llagan obyektiv-qiyosiy yondashuv bugungi kunda millatlararo o‘zaro tushunish metodologiyasining ilk namunalaridan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, mutafakkir bobomiz Ibn Sino asarlarida ijtimoiy-siyosiy qarashlarida shaxs kamolotini jamiyat va davlat tuzilishi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilib, ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali shakllanadigan jamoaviy ongni ijtimoiy barqarorlikning asosi deb hisoblagan [6]. Alisher Navoiy esa o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida til boyligini millat ma’naviy merosining markaziy

elementi sifatida asoslab, lisoniy o‘zlikni himoya qilishning nazariy zaminini yaratgan edi [7].

Zamonaviy G‘arb ijtimoiy falsafasida axborotlashgan jamiyat nazariyasining shakllanishi Manuel Kastelsning “Tarmoq jamiyati” kontseptsiyasi bilan bog‘liq. Kastels axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy tuzilmalarning axborot texnologiyalari asosida qayta tashkil topishi sifatida ta’riflab, unda makon va vaqt tushunchalarining “oqim makoni” (space of flows) va “abadiy hozir” (timeless time) shakllariga transformatsiyalanishini asoslagan [8]. Faylasuf Elvin Toffler o‘zining “Uchinchi to‘lqin” nazariyasida jamiyat taraqqiyotini uchta bosqichga – agrar, industrial va axborot to‘lqinlariga – ajratib, har bir to‘lqin o‘zi bilan birga yangi turmush tarzi, ijtimoiy tuzilma va – muhimi – o‘zlikni anglash shaklini olib kelishini ko‘rsatgan [9]. Postindustrial jamiyat haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan Deniel Bell esa “postindustrial jamiyat” konsepsiyasida nazariy bilim va axborotning ijtimoiy tuzilmani belgilovchi asosiy resursga aylanishini asoslab bergan [10]. Ushbu nazariyalar milliy o‘zlik muammosini yangi rakursda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Agar an’anaviy jamiyatlarda o‘zlik nisbatan barqaror hududiy-etnik chegaralar doirasida shakllangan bo‘lsa, tarmoq jamiyatida u “oqim makoni”da, ya’ni jismoniy hududdan tashqarida ham muttasil muzokara jarayonida qayta ishlab chiqiladi [8].

G‘arb ijtimoiy fanida o‘zlik (identity) muammosini nazariy jihatdan tizimlashtirgan yana bir muhim manba sifatida Kastelsning o‘zlik tipologiyasidir. U uchta o‘zlik shaklini farqlaydi. Bularga legitimlashtiruvchi o‘zlik (hukmron institutlar tomonidan shakllantiriladigan), qarshilik o‘zligi (marginallashtirilgan guruhlarning himoya mexanizmi sifatida yuzaga keladigan) va loyiha o‘zligi (yangi ijtimoiy subyektlik asosida qurilib, mavjud institutlarni qayta belgilashga intiluvchi) kabilar. Milliy o‘zlik ushbu tipologiyada ko‘pincha legitimlashtiruvchi va loyiha o‘zligi elementlarini birlashtirgan gibrid shakl sifatida namoyon bo‘ladi. E.Erikson o‘zining psixososial rivojlanish nazariyasida o‘zlikni shaxsning ichki izchilligi va ijtimoiy tan olinishi o‘rtasidagi muvozanat sifatida ta’riflab, jamoaviy o‘zlik – jumladan, milliy o‘zlik – individual o‘zlikning ijtimoiy proyeksiyasi ekanini ko‘rsatgan edi [11]. Ushbu yondashuv milliy o‘zlikni faqat kollektiv, deb qaramay, balki individual shaxs darajasida ham tadqiq etish zaruratini asoslaydi.

Siyosatshunos Samuel Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” kitobida sovuq urushdan keyingi davrda xalqaro munosabatlarning asosiy chizig‘i mafkuraviy emas, balki madaniy-sivilizatsion o‘zlik atrofida shakllanishini bashorat qilgan edi [12]. Uning ta’kidlashicha, globallashuv jarayoni, umumiy taxmindan farqli o‘laroq, xalqlarni bir xillashtirish o‘rniga ko‘pincha ularning o‘z madaniy o‘ziga xosligini yanada kuchliroq anglashiga olib keladi.

Natijalar va Muhokama. Milliy o‘zlikning tarkibiy tuzilishini metodologik jihatdan tahlil qilganda, kamida to‘rtta asosiy komponentni ajratish mumkin. Birinchi komponent – lisoniy o‘zlik, ya’ni ona til orqali shakllanuvchi tafakkur va dunyoqarash tizimi. Anthoni Smit milliylikni tadqiq qilar ekan, til millatning “simvolik markazi” vazifasini bajarishini, chunki u nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki tarixiy tajriba va kollektiv xotirani avloddan-avlodga uzatuvchi mexanizm ekanligini ko‘rsatgan [13].

Ikkinchi komponent – tarixiy xotira, ya’ni xalqning o‘tmishdagi voqealar, qahramonlar va yutuqlar haqidagi kollektiv anglashi. Moris Xalbvaks tomonidan ishlab chiqilgan “kollektiv xotira” nazariyasiga ko‘ra, xotira hech qachon sof individual bo‘lmaydi – u ijtimoiy guruhlar tomonidan doimiy ravishda qayta quriladi va milliy identifikatsiyaning eng barqaror negizini tashkil etadi [14].

Uchinchi komponent – aksiologik, ya’ni qadriyatlar tizimi – xalqning axloqiy me’yorlari, ijtimoiy munosabatlar madaniyati va hayotiy ustuvorliklarini o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi komponent – ma’naviy-diniy meros bo‘lib, u xalqning transsendental qadriyatlar tizimi, diniy-falsafiy an’analari va ma’naviy tajribasini ifodalaydi. Ushbu to‘rt komponent o‘zaro uzviy bog‘liq holda milliy o‘zlikning yaxlit strukturasini tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ushbu to‘rt komponentning har biri o‘ziga xos strukturaviy tahdidlarga duch kelmoqda. Lisoniy o‘zlik nuqtai nazaridan, global raqamli platformalarning ustunlik qiluvchi tillari (birinchi navbatda ingliz tili) yosh avlod tafakkurining lingvistik shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, bu esa ba’zi tadqiqotchilar tomonidan “lisoniy gomogenlashuv” hodisasi sifatida baholanmoqda [15].

Tarixiy xotira nuqtai nazaridan, algoritmik boshqariladigan axborot oqimlari ko‘pincha tarixiy voqealarning bir tomonlama yoki soddalashtirilgan talqinlarini keng tarqatib, murakkab tarixiy jarayonlarni yuzaki mem va qisqa videokontent shakliga tushiradi. Bu esa kollektiv xotiraning chuqurlashishi o‘rniga uning fragmentatsiyalashuviga olib kelishi mumkin.

Aksiologik komponent, ya’ni qadriyatlar tizimi jihatidan, global axborot makonida turli madaniy-mafkuraviy oqimlarning bir vaqtning o‘zida va tekshirilmagan holda tarqalishi yosh avlodda qadriyatlar ierarxiyasining beqarorlashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Shvarts o‘zining qadriyatlar nazariyasida shaxs qadriyatlar tizimining barqarorligi ijtimoiy-psixologik farovonlikning muhim omili ekanini ko‘rsatgan edi [16], shu bois uning beqarorlashuvi individual va ijtimoiy darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ma’naviy-diniy meros komponenti esa raqamli makonda ikki yo‘nalishda sinovga uchramoqda: bir tomondan, an’anaviy ma’naviy institutlarning nufuzi tobora individuallashgan va tarqoq axborot iste’moli fonida zaiflashish xavfi ostida qolmoqda; ikkinchi tomondan, radikallashtiruvchi guruhlar aynan shu bo‘shliqdan foydalanib, o‘z destruktiv g‘oyalarini diniy-ma’naviy niqob ostida tarqatishga harakat qilmoqda [17].

Ushbu tahdidlar kontekstida milliy o‘zlikning saqlanishi va rivojlanishini ta’minlovchi metodologik kategoriya sifatida kognitiv suverenitet tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv suverenitet – shaxs va jamiyatning tashqi axborot-mafkuraviy ta’sirlarga qaramay, o‘z qadriyatlari va tafakkur mustaqilligini saqlab qolish qobiliyatidir [18]. Ushbu kategoriya davlat suvereniteti tushunchasining kognitiv-ma’naviy proyeksiyasi sifatida talqin etiladi.

Kognitiv suverenitet bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yana bir metodologik kategoriya – ma’naviy agentlik, ya’ni shaxsning o‘z qadriyatlariga tayanib, ongli, erkin va mustaqil ma’naviy tanlov qilish salohiyatidir [19]. Milliy o‘zlik faqat tashqi omillar ta’sirining passiv natijasi emas, balki shaxsning faol ma’naviy agentligi orqali doimiy ravishda qayta tasdiqlanadigan va mustahkamlanadigan jarayon sifatida tushunilishi lozim.

Bu o‘rinda Forobiyning fazilatli jamiyat g‘oyasi zamonaviy metodologik ahamiyat kasb etadi: uning ta’limotiga ko‘ra, jamiyat a’zolarining umumiy g‘oya atrofida ongli birlashuvi tashqi bosimga emas, balki ichki ma’naviy-aqliy kamolotga asoslanishi kerak. Aynan shu tamoyil bugungi kunda kognitiv suverenitetni mustahkamlashning falsafiy negizini tashkil etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida milliy o‘zlikni mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab keldi. Islom Karimov o‘z asarlarida milliy g‘oyani xalqning ma’naviy immun tizimi sifatida talqin qilib, uni jamiyatni tashqi mafkuraviy

tahdidlardan himoya qiluvchi ichki mustahkamlik manbai sifatida asoslab bergan edi [20].

Shavkat Mirziyoyev o‘zining ma’ruzalarida raqamli transformatsiya davrida milliy qadriyatlarni saqlash bilan zamonaviylashuv jarayonlarini uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlab, yoshlarni milliy g‘oyaga sodiq, zamonaviy bilimlarga ega barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini bir necha bor qayd etgan [21].

Milliy o‘zlikni axborotlashgan jamiyat sharoitida nazariy jihatdan o‘rganishning metodologik asosi sifatida kompleks, ko‘p darajali yondashuvni taklif etish mumkin. Ushbu yondashuv uchta o‘zaro bog‘liq tahlil darajasini o‘z ichiga oladi.

Falsafiy-konseptual daraja: milliy o‘zlikning ontologik mohiyatini Sharq mumtoz merosi va zamonaviy G‘arb ijtimoiy falsafasi sintezida qayta konseptuallashtirish.

Strukturaviy-tahliliy daraja: milliy o‘zlikning lisoniy, tarixiy-xotiraviy, aksiologik va ma’naviy-diniy komponentlarini alohida-alohida hamda ularning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish.

Amaliy-institutsional daraja: kognitiv suverenitet va ma’naviy agentlikni mustahkamlashga qaratilgan ta’lim, axborot siyosati va ma’naviy-ma’rifiy institutlar faoliyati mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ushbu uch darajali metodologik model milliy o‘zlik muammosini nafaqat tasviriy, balki amaliy-tavsiyaviy jihatdan ham tadqiq etish imkonini beradi, bu esa masalaning ham nazariy, ham davlat siyosati amaliyoti uchun ahamiyatini oshiradi [3].

Xulosa. Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy o‘zlik muammosi murakkab, ko‘p qatlamli va o‘zaro bog‘liq omillar tizimidan iborat bo‘lib, uni tadqiq etish Sharq mumtoz falsafiy merosi bilan zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalarning uzviy sintezini talab etadi. Kognitiv suverenitet va ma’naviy agentlik kategoriyalari milliy o‘zlikning axborotlashgan jamiyat sharoitida saqlanishi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy metodologik vositalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Milliy o‘zlikning mustahkamligi – nafaqat madaniy-ma’naviy, balki strategik xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning ham zaruriy sharti bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Wiley-Blackwell. – pp. 110-130.
2. Giddens, A. (1991). Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford University Press. – pp. 28-45.
3. Karimov, I. (2021). Milliy g‘oya: xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. Toshkent: O‘zbekiston. – 5-18-betlar.
4. Forobiy, A.N. (2019). Fozil shahar aholisining fikrlari (tarjima). Toshkent: Yangi asr avlodi. – 205-225-betlar.
5. Beruniy, A.R. (2020). Hindiston (tarjima). Toshkent: Fan. – 40-55-betlar.
6. Ibn Sino (2018). Ijtimoiy-siyosiy qarashlar (to‘plam). Toshkent: Fan va texnologiya. – 80-98-betlar.
7. Navoiy, A. (2019). Muhokamat ul-lug‘atayn. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. – 148-165-betlar.
8. Castells, M. (2004). The Power of Identity (2nd ed.). Wiley-Blackwell. – pp. 6-12, 100-112.
9. Toffler, A. (1980). The Third Wave. William Morrow. – pp. 20-35.
10. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. W. W. Norton & Company. – pp. 150-165.
11. Huntington, S. P. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster. – pp. 18-40.
12. Smith, A. D. (1991). National Identity. University of Nevada Press. – pp. 25-40.
13. Halbwachs, M. (1992). On Collective Memory. University of Chicago Press. – pp. 45-60.
14. Fishman, J. A. (2001). Can Threatened Languages Be Saved? Multilingual Matters. – pp. 35-50.
15. Schwartz, S. H. (2012). An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1). – pp. 12-24.
16. Roy, O. (2004). Globalized Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press. – pp. 58-70.
17. Nazarov, Q. (2022). Kognitiv suverenitet va milliy xavfsizlik. Toshkent: Ma’naviyat. – 10-22-betlar.
18. Otamurodov, S. (2021). Milliylik va globallashuv. Toshkent: Fan. – 1-9-betlar.
19. Karimov, I. (1998). O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O‘zbekiston. – 40-50-betlar.
20. Mirziyoyev, Sh.M. (2023). Yoshlar – kelajagimiz, ularning ma’naviy dunyosi – milliy taraqqiyot omili (ma’ruzalar to‘plami). Toshkent: O‘zbekiston. – 8-16-betlar.